Ushbu ko'rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, xaridlar hajmining tez sur'atlarda o'sishi tizimning texnik imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarning ham mutanosib ravishda takomillashtirilishini taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son Farmoni bilan 2030-yilgacha davlat xaridlari sohasini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlanib, tizimga sun'iy intellekt, avtomatik monitoring va elektron-skoring elementlarini joriy etish belgilandi. Biroq jarayonning texnologik jihatdan rivojlaniishi shartnomaviy munosabatlarning fuqarolik-

huquqiy asoslarini bir xilda takomillashtirishni talab etadi. Elektron shartnoma, elektron imzo va raqamli identifikatsiyaning yuridik kuchini aniq belgilovchi izchil huquqiy asosning yetarli darajada shakllanmaganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi davlat xaridlari jarayonining elektronlashuvi sharoitida shartnomaviy munosabatlarning fuqarolik-huquqiy tabiatini nazariy jihatdan aniqlash hamda xorijiy davlatlar tajribasi asosida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

Elektron shartnomalarning huquqiy tabiati bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar turli yondashuvlarni ilgari surgan. A. Davidson (2009) elektron bitimlarning huquqiy tabiatini elektron hujjatlarning yozma shaklga tenglashtirilishi va elektron imzoning yuridik kuchi orqali izohlaydi. A. Prijennikova va G. Kolyada (2020) elektron shartnomani taraflar irodasini raqamli muhitda ifodalash vositasi sifatida talqin etadi. I. Rustambekov (2017) esa elektron shartnomani elektron tijoratda foydalaniladigan elektron hujjatning bir turi sifatida ta'riflaydi. Biroq elektron davlat xaridlari shartnomasining fuqarolik-huquqiy tabiati va uni O'zbekiston sharoitida tartibga solish masalasi hanuz yaxlit ilmiy konsepsiya darajasida ishlab chiqilmagan.

Asosiy qism

Jahon bankining tahliliy materiallarida ta'kidlanishicha, davlat xaridlarini raqamlashtirish samaradorlik, hisobdorlik, shaffoflik va kichik hamda o'rta tadbirkorlik subyektlarining xaridlar

jarayonidagi ishtirokini kengaytirishning muhim vositasi hisoblanadi. Xususan, ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish va raqobatni kuchaytirish hisobiga xarajatlarni 20 foizgacha va vaqt sarfini 80 foizgacha qisqartirish imkoniyati mavjudligi qayd etiladi (Tayler & Langburd Wright, 2018). Shu bilan birga, jahon miqyosida davlat xaridlarini raqamlashtirish darajasida sezilarli tafovut mavjud: ba'zi davlatlarda hali davlat shartnomalari to'g'risida ma'lumot joylashtiriladigan oddiy portal ham yo'q bo'lsa, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo bir qator davlatlar sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish bosqichiga o'tgan.

Davlat boshqaruvi sohalari orasida davlat xaridlari raqamli vositalarni birinchilardan bo'lib joriy etgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi, bu jarayon 1970-yillarning oxirlaridayoq boshlangan. AQSHda 1978-yilda xaridlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va kuzatib borish maqsadida Federal xaridlar ma'lumotlar tizimi ishga tushirilgan bo'lib, bu shaxsiy kompyuterlarning ommalashuvi 1977-yilda *VisiCalc* dasturi bilan jihozlangan Apple II va 1981-yilda IBM PCning chiqarilishi bilan bir davrga to'g'ri kelgan. 1980–1990-yillarda Kanada, Buyuk Britaniya va AQSH hukumatlari qog'ozga asoslangan tartibtaomillardan voz kechib, xatolik ehtimolini va vaqt sarfini kamaytirish maqsadida elektron platformalarni joriy eta boshlagan, Yevropa Ittifoqi esa 1990-yillarda *Tenders Electronic Daily* elektron e'lon portalini ishga tushirgan.

Sifat jihatidan yangi bosqich, ya'ni oddiy raqamli shaklga o'tkazishdan farqli o'laroq raqamlashtirish, 2000-yillar o'rtalarida boshlangan bo'lib, bunda avtomatlashtirilgan jarayonlar, real vaqt rejimidagi ma'lumotlar va xarid bosqichlari o'rtasidagi texnik integratsiya ustuvor xususiyat kasb etadi. Janubiy Koreya Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti davlatlari orasida bu yo'nalishda yetakchilik qilgan: 1997-yilda Butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish majburiyati doirasida xaridlar bozorini liberallashtirish zarurati Davlat xaridlari xizmatini isloh qilishga turtki bergan, natijada 2002-yilda KONEPS tizimi elektron hukumat strategiyasining tarkibiy qismi sifatida joriy etilgan. 2014-yilga kelib deyarli barcha rivojlangan davlatlar xarid takliflarini e'lon qilish va tender hujjatlarini taqdim etish uchun elektron platformalardan foydalanishga

o'tgan, ko'pchilik davlatlarda esa bunday platformalardan foydalanish qonun bilan majburiy qilib belgilangan. Braziliyaning *ComprasNet* platformasi elektron auksionlardan foydalanish, yetkazib beruvchilarni ro'yxatdan o'tkazish va shartnomalarni boshqarishni avtomatlashtirish orqali shaffoflik va samaradorlikni oshirishning yaxshi amaliyoti sifatida tan olingan (OECD, 2025).

O'zbekistonda raqamli davlat xaridlari tizimining rivojlanish evolyutsiyasi ma'muriy bosim va qog'ozbozlikdan butunlay algoritmlarga asoslangan xususiy-huquqiy platformagacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi va uni to'rtta davrga bo'lish mumkin.

Birinchi davr – tarqoq va institutsional shakllanmagan qog'oz xaridlari davri (2018-yilgacha). Ushbu davrda “davlat xaridi shartnomasi” tushunchasining yagona fuqarolik-huquqiy asosi mavjud emas edi, tizim ma'muriy buyruqbozlikka tayanar edi. Xaridlar asosan an'anaviy qog'oz shaklida, yopiq komissiyalar qaroriga muvofiq o'tkazilardi. Shartnoma tuzish jarayonida inson omili o'ta yuqori bo'lib, fuqarolik huquqining “tomonlar tengligi” va “shaffoflik” prinsiplari to'liq ta'minlanmagan.

Ikkinchi davr – yagona tizim va elektron shartnomaning qonuniy tan olinishi (2018–2021-yillar). Tizim ilk bor yaxlit huquqiy tartibga solindi va elektron shartnomalarning fuqarolik-huquqiy asosi mustahkamlandi. 2018-yil 9-apreldagi O'RQ-472-son “Davlat xaridlari to'g'risida”gi birinchi Qonun bilan ilk bor *xarid.uzex.uz* yagona axborot portali operator sifatida belgilandi. Elektron auksion va elektron do'kon vositasida shartnoma tuzish tizimi joriy etildi. Mazkur davrda platformada ofertani qabul qilish (aksept) va elektron raqamli imzo orqali shartnoma tuzishning fuqarolik-huquqiy oqibatlari tizimlashtirildi. Biroq eng murakkab xarid turlari tender va tanlovlar hanuz qog'oz shaklida va yopiq tarzda qolayotgan edi.

Uchinchi davr – tenderlarning to'liq elektronlashishi va shartnoma oldi bosqichning qat'iylashishi (2021–2025-yillar). Xarid munosabatlarining shaffofligi hamda shartnoma erkinligi prinsiplari xalqaro andozalar darajasiga olib chiqildi. Tender va eng yaxshi takliflarni tanlash jarayonlari ham *etender.uzex.uz* portaliga ko'chirilib, inson omili mutlaq cheklandi. Fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan, ushbu qadam

shartnoma tuzishdan oldingi bosqichda korrupsiyaviy bitimlarning oldini olish kafolati bo'ldi. Shuningdek, insofsiz ijrochilarning reyestri joriy etilib, bu shartnoma majburiyatlarini buzgan subyektlarning fuqarolik muomalasida ishtirok etish huquqini qonuniy cheklash mexanizmiga aylandi.

To'rtinchi davr – sun'iy intellekt va aqlli bitimlar tizimi (2026-yildan keyingi davr). Tizim algoritmlar orqali avtomatik nazorat qilinadigan "aqlli" ekotizimga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan 2030-yilgacha davlat xaridlari sohasini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi (President of the Republic of Uzbekistan, 2025). Tizimga sun'iy intellekt elementlari, narxlarni avtomatik monitoring qilish va ishtirokchilarni avtomatik baholash tizimi joriy etilmoqda. Eng muhimi, an'anaviy to'g'ridan to'g'ri shartnomalar amaliyoti deyarli to'liq bekor qilinib, shartnomaviy munosabatlar raqobatli elektron mexanizmlarga o'tkazilmoqda.

Xorijiy tajribani tahlil qilishdan avval raqamli davlat xaridlari shartnomasining fuqarolik-huquqiy tabiatini nazariy jihatdan aniqlab olish zarur.

An'anaviy fuqarolik huquqi nazariyasida shartnomaning yozma shakli tomonlarning irodasini moddiy vositada (qog'ozda) mustahkamlash va imzo orqali shu irodaning haqiqiylikni tasdiqlashni nazarda tutadi. Elektron muhitda esa ushbu ikki funksiya – irodani mustahkamlash va uni tasdiqlash – texnik jihatdan boshqacha, ammo huquqiy oqibati bo'yicha teng vositalar orqali amalga oshiriladi. Huquqshunos olim Alan Davidson (2009) o'zining "The Law of Electronic Commerce" asarida zamonaviy elektron bitimlarga doir tadqiqotlarni olib borgan bo'lib, uning fikriga ko'ra, elektron bitimlarning huquqiy tabiatini belgilashda asosiy e'tibor elektron hujjatlarning yozma shaklga tenglashtirilishi hamda elektron imzoning yuridik kuchiga qaratilishi lozim.

Ya'ni olim elektron bitimlar tuzilishini elektron raqamli imzo bilan asoslaydi: agar taraflar elektron shaklda shartnoma tuzish niyatini ifodalovchi har qanday elektron harakatni amalga oshirsa, mazkur harakat asosida tuzilgan shartnoma elektron shartnoma hisoblanib, huquqiy jihatdan qog'oz shaklda tuzilgan an'anaviy shartnomaga tenglashtiriladi.

A. Prijennikova hamda G. Kolyadalarining (2020) fikricha, elektron shartnoma fuqarolik-huquqiy munosabatlarning zamonaviy shakli sifatida taraflar erkini raqamli muhitda ifodalash vositasi hisoblanadi. Bunda elektron raqamli imzo, elektron xabarlar va axborot tizimlari orqali ifodalangan rozilik shartnomaning yozma shakliga tenglashtiriladi. Tadqiqotchi olim V. Usmonov (2021) esa internet orqali tuzilgan shartnomalarni bevosita inson faktoriga bog'liq holda ikki tomonning talab va istaklari namoyon bo'lgan, hech qanday to'siqlarsiz, oshkora va qisqa vaqt oralig'ida tuzilgan shartnomalar sifatida e'tirof etadi. I. Rustambekov (2017) esa elektron shartnomani elektron tijoratda foydalaniladigan elektron hujjatning bir turi sifatida talqin qiladi. A. Abduljalilov (2016) internetda tuziladigan shartnomalarni an'anaviy tasnifga to'liq tushmaydigan "netipik" fuqarolik shartnomalari sifatida talqin qiladi va ularni tavsiflovchi to'rtta tizim hosil qiluvchi elementni ajratib ko'rsatadi. M. Beloborodov, D. Yakovenko va Y. Nedelkina-lar (2021) esa elektron hujjat shaklida tuzilgan shartnomaning huquqiy tabiatini alohida tadqiq etib, elektron hujjat orqali ifodalangan iroda va uni tasdiqlash mexanizmi yozma shakl talablariga muvofiqligini asoslaydilar. Deng Ying (2025) O'zbekiston va Xitoy fuqarolik huquqini qiyosiy o'rganib, elektron shartnomaning yuridik kuchi, haqiqiylik shartlari hamda xavflarni boshqarish mexanizmlarini tahlil qiladi va asosiy e'tiborni Fuqarolik kodeksi hamda "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun qoidalari orqali elektron shartnomaning an'anaviy shartnomaga tenglashtirilishiga qaratadi. Ushbu qarashlar bir-birini to'ldirib, elektron davlat xaridlari shartnomasi ham mohiyatan fuqarolik-huquqiy shartnoma bo'lib, uning o'ziga xosligi irodani ifodalash va tasdiqlashning raqamli mexanizmlarida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgacha tadqiqotlarda asosiy e'tibor elektron shartnomaning umumiy fuqarolik-huquqiy tabiatiga elektron hujjatning yozma shaklga hamda elektron imzoning qo'lyozma imzoga tenglashtirilishiga qaratilgan, biroq davlat xaridlari elektron shartnomasining huquqiy tabiati mustaqil tadqiqot predmeti sifatida deyarli o'rganilmagan. Holbuki, mazkur shartnoma an'anaviy elektron bitimlardan bir qator jihatlari

bilan farqlanadi: uning bir tarafi doimo davlat manfaatini ifodalovchi buyurtmachi hisoblanadi, iroda ifodasi va aksept oldindan belgilangan platforma protsedurasi doirasida shakllanadi, shartnoma erkinligi esa raqobat va shaffoflik tamoyillari bilan cheklanadi. Shu bois elektron shartnomaning tabiatiga oid umumiy nazariy xulosalar – irodani ifodalash va tasdiqlashning raqamli mexanizmlari haqidagi qarashlar davlat xaridlari sohasiga bevosita ko'chirib qo'llanilishi mumkin, ammo ular ushbu munosabatlarning ommaviy-huquqiy elementlar bilan qorishgan tabiatini to'liq qamrab olmaydi. Ana shu ilmiy bo'shliq davlat xaridlari elektron shartnomasi-ning fuqarolik-huquqiy tabiatini alohida, tizimli tadqiq etishni taqozo qiladi.

Xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qiladigan bo'lsak, davlat xaridlarini raqamlashtirishning bir nechta o'ziga xos modelini ko'rish mumkin. Masalan, Yevropa Ittifoqida an'anaviy tarzda davlat xaridlari texnologiya yoki elektron vositalarsiz, to'liq qog'oz shaklida amalga oshirilgan. Yevropa Ittifoqida bu sohani raqamlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich, ikki asosiy huquqiy davrni bosib o'tgan holda rivojlandi. Birinchi bosqich – 2004-yildagi xaridlar direktivasi davri bo'lib, unda elektron xaridlar a'zo-davlatlar uchun shunchaki ixtiyoriy imkoniyat sifatida taqdim etilgan edi. Biroq bu imkoniyatdan amalda deyarli foydalanilmadi: a'zo-davlatlar orasida faqat Portugaliya to'liq elektron xaridlar tizimini joriy etdi, qolgan davlatlarning aksariyati an'anaviy qog'oz asosidagi tartib-taomillarni saqlab qoldi (OECD, 2025).

Sifat jihatidan tubdan farqli ikkinchi bosqich 2014-yildagi Davlat xaridlari direktivasi, xususan, 2014/24/EU-son direktiva bilan boshlandi (European Union, 2014). Ushbu direktiva birinchi marta elektron xaridlardan foydalanishni ixtiyoriy emas, balki majburiy tartibga o'tkazdi: e'lonlarni elektron shaklda berish, xarid hujjatlarining elektron shaklda mavjudligi, takliflarni elektron taqdim etish, shuningdek buyurtmachi va yetkazib beruvchilar o'rtasidagi umumiy aloqaning elektron tartibda amalga oshirilishi barcha a'zo-davlatlar uchun majburiy qilib belgilandi.

Amaliy jihatdan direktiva xaridlarni tashkil etuvchi organlar foydalanadigan elektron platformalar orqali amalga oshirilishini nazarda tutgan holda, davlat-a'zolarga ikki model o'rtasida tanlov

erkinligini qoldirdi: yagona milliy platforma yaratish yoxud xaridlarni tashkil etuvchi tashkilotlarning e'tiborini qozonish uchun bir-biri bilan raqobatlashuvchi bir nechta platformaga ruxsat berish. Bu yondashuv markazlashtirilgan yagona yechimni majburiy qilib belgilamagan, balki texnik-tashkiliy moslashuvchanlikka ustuvorlik bergan.

Biroq direktiva mohiyatan ilgari qog'ozda amalga oshirilgan jarayonlarni shunchaki elektron formatga "ko'chirish" bilan cheklandi. Natijada elektron xaridlar tizimi ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish va tahlil qilish imkoniyatini to'liq ta'minlay olmadi. Yana bir muhim cheklov shundan iboratki, direktivaning elektron aloqa bo'yicha majburiyati faqat shartnoma tuzilgunga qadar bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi; shartnoma tuzilgandan keyingi bosqichlar, ya'ni ijro, o'zgartirish va bekor qilish jarayonlari ushbu majburiyat doirasidan tashqarida qoldirilgan.

Shunga qaramay, texnik infratuzilma darajasida muayyan yutuqlarga erishildi: Yevropa Komissiyasi tomonidan joriy etilgan yagona elektron e'lon formati (eForms) *Tenders Electronic Daily* portali orqali barcha a'zo-davlatlar bo'yicha xaridlar to'g'risidagi ma'lumotlarni standartlashtirish imkonini berdi. Xulosa qilib aytganda, Yevropa Ittifoqining elektron xaridlarga o'tish tajribasi shuni ko'rsatadiki, keng qamrovli huquqiy majburiyatning o'zi, agar u mavjud tartib-taomillarni raqamlashtirish bilan cheklanib qolsa, boshidanoq raqamli tamoyillar asosida qurilgan tizimga xos bo'lgan barcha afzalliklarni ta'minlay olmaydi (OECD, 2025).

Janubiy Koreyada davlat xaridlarini raqamlashtirish tajribasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu yerda avval elektron hujjat va elektron imzoning yuridik kuchini tan olish bo'yicha maxsus qonunchilik yaratilgan, so'ngra bu asosda yaxlit xaridlar platformasi qurilgan. 1996-yilda o'tkazilgan elektron kim oshdi savdosi pilot loyihasi elektron hujjatlar va imzolarining yuridik haqiqiyliги hamda tasdiqlanishi masalasida huquqiy noaniqliklarga duch kelgan. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida 1999-yilda "Elektron tijorat to'g'risida"gi asosiy qonun va "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, ular elektron hujjatlarining ishonchiligi va xavfsizligini ta'minlovchi shifrlash andozalarini belgiladi.

Shu huquqiy zaminda 2002-yilda Davlat xaridlari xizmati tomonidan KONEPS (Korea ON-line E-Procurement System) – butun xaridlar jarayonini, ya’ni byudjetlashtirishdan tortib tender e’loni, tanlov, shartnoma tuzish va onlayn to’lovgacha bo’lgan barcha bosqichlarni qamrab oluvchi yagona “bitta darcha” tizimi joriy etildi (OECD, 2025).

Huquqiy-sivilistik nuqtayi nazardan muhim jihati shundaki, KONEPS davlat organlarining turli ma’lumotlar bazalari (biznes-registratsiya guvohnomasi, soliq to’lovi to’g’risidagi ma’lumot, qurilish tajribasi bo’yicha reyestrlar) bilan avtomatik ma’lumot almashinuvini yo’lga qo’yish orqali yetkazib beruvchilardan bir xil hujjatlarni qayta-qayta talab qilishni bartaraf etadi (“bir marta taqdim etish” tamoyili), bu esa ma’muriy to’siqlarni kamaytirish bilan bir qatorda inson omili va ma’muriy diskretsiyaga bog’liq korrupsiyaviy xavflarni ham qisqartiradi. Ba’zi tadqiqotlarga ko’ra, tizim hisobiga yillik tranzaksion xarajatlar tejami sezilarli miqdorni tashkil etgan.

KONEPS tizimining asosiy maqsadi dastlabdan davlat tashkilotlari va yetkazib beruvchilar o’rtasidagi korrupsiyaviy aloqalarning oldini olish hamda qog’oz shaklidagi shartnomalar bilan bog’liq keraksiz xarajatlarni qisqartirish bo’lgan. Qamrov va funktsionallik darajasi bo’yicha KONEPS eng ilg’or elektron xaridlar platformalaridan biri hisoblanadi, bu esa Koreyada davlat xaridlarining samaradorligi, natijadorligi va holligini sezilarli darajada oshirdi (OECD, 2025).

Qozog’iston Respublikasida davlat xaridlarini elektron shaklga o’tkazish jarayoni bosqichma-bosqich va uzoq muddatli institutsional rivojlanish natijasida shakllangan. Elektron xaridlar tizimining huquqiy asosi 2008-yilda mamlakat qonunchiligiga kiritilgan bo’lib, xuddi shu yili “Elektron tijorat markazi” AJ tomonidan narxlarni so’rov usulini qamrab oluvchi tizimning pilot versiyasi ishga tushirilgan. Keyingi yillarda tizim funktsionalligi bosqichma-bosqich kengaytirilib, boshqa xarid usullari ham unga integratsiya qilingan. 2014-yilda tizimga elektron shartnomalar instituti joriy etilgan bo’lib, bu shartnomaviy munosabatlarni raqamlashtirishning muhim bosqichi hisoblanadi.

2016-yilda “Davlat xaridlari to’g’risida”gi qonun va unga muvofiq qabul qilingan davlat xaridlari qoidalarini asosida tizimning yangi, hozirgi

amaldagi versiyasi ishga tushirilgan. Ushbu qonunga bo’ysunuvchi barcha davlat buyurtmachilari xaridlarni faqat elektron tizim orqali amalga oshirishlari majburiy qilib belgilangan. 2017-yilda barcha davlat xaridlari operatsiyalari uchun elektron hisob-fakturalash majburiy tartibga kiritilgan, 2018-yildan boshlab esa qabul qilish dalolatnomalari va kvitansiyalar to’liq elektron shaklda rasmiylashtirila boshlagan, bu esa milliy g’aznachilik tizimi orqali yetkazib beruvchilarga to’lovlarni tezlashtirishga xizmat qilgan.

2018-yil oxirida “Davlat xaridlari to’g’risida”gi qonunga kiritilgan tuzatishlar tizimni moliyalashtirish modelini tubdan o’zgartirdi: davlat byudjeti o’rniga yetkazib beruvchilarning yillik obuna to’lovlari tizimni ishlab chiqish, ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat ko’rsatish xarajatlarini qoplashning asosiy manbaiga aylandi. Shuningdek, barcha potensial yetkazib beruvchilar uchun elektron hamyon mexanizmi joriy etilgan bo’lib, u garov mablag’larini saqlash-qaytarish hamda yillik obuna to’lovlarini amalga oshirish uchun mo’ljallangan. Shunday qilib, Qozog’istonning elektron xaridlar tizimi rejalashtirishdan shartnoma ijrosigacha bo’lgan butun jarayon bo’yicha – “elektron rejalashtirish – elektron xarid – elektron shartnoma – elektron ijro – elektron to’lov” formulasi asosida bosqichma-bosqich rivojlanib bordi (OECD, 2019).

Qozog’istonda elektron xaridlarni tartibga soluvchi asosiy normativ hujjat “Davlat xaridlari to’g’risida”gi qonun hisoblanadi. Ushbu qonunning 4-moddasida belgilangan davlat xaridlarining sakkizta tamoyili qatorida ochiqlik va shaffoflik tamoyili alohida o’rin egallaydi, bu esa elektron tizimning huquqiy negizini tashkil etadi.

Qozog’iston elektron xaridlar tizimining afzalliklari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin. Birinchidan, tizim rivojlangan davlatlar bilan solishtirganda ancha keng funktsional qamrovga ega – rejalashtirishdan ijrogacha bo’lgan deyarli barcha bosqichlar elektronlashtirilgan, holbuki, ko’plab davlatlarda elektron hisob-fakturalash kabi funktsiyalar hali to’liq joriy etilmagan.

Ikkinchidan, har bir alohida xarid operatsiyasi darajasida shaffoflik yetarli darajada ta’minlangan: tender e’lonlari, texnik topshiriqlar, baholash mezonlari va shartnoma matnlari umumiy foydalanish uchun ochiq.

Uchinchidan, tizimning markazlashgan xarakteri xarid ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilishni soddalashtiradi, chunki deyarli barcha davlat buyurtmachilari yagona platformadan foydalanadi. Bundan tashqari, ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar va yetkazib beruvchilar sonining barqaror o'sishi tizimga bo'lgan ishonchning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Qozog'istonning elektron xaridlar tizimi institutsional evolyutsiyasi, huquqiy tartibga solish darajasi va operatsion shaffofligi jihatidan Markaziy Osiyo mintaqasida ilg'or tajriba sifatida baholanishi mumkin va O'zbekiston uchun elektron xaridlar tizimini takomillashtirishda inobatga olinishi lozim bo'lgan muhim saboqlarni beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, Prezidentning PF-259-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining davlat xaridlari strategiyasi to'g'risidagi qarori bilan belgilangan islohotlar yo'nalishini yuqorida tahlil qilingan xorijiy tajriba asosida quyidagi tavsiyalar bilan boyitish mumkin.

Birinchidan, Fuqarolik kodeksida elektron shartnoma tushunchasi va elektron imzoning yozma shaklga tengligi tamoyilini Janubiy Koreya va Qozog'iston tajribasiga muvofiq, alohida va aniq norma sifatida mustahkamlash lozim; bu davlat xaridlari sohasidagi elektron bitimlarning yuridik ishonchliligini oshiradi.

Ikkinchidan, milliy xaridlar portali doirasida xaridlar jarayonining to'liq rejalashtirishdan shartnoma ijrosi, o'zgartirilishi va to'lovigacha bo'lgan bosqichlarini raqamlashtirish qonun darajasida mustahkamlanishi kerak; bunda Yev-

ropa Ittifoqi tajribasidagi "shartnomadan keyingi bo'shliq"ni takrorlamaslik zarur.

Uchinchidan, avtomatik komplayens mexanizmlarini joriy etish orqali inson omili ta'sirini kamaytirish hamda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlarining raqamlashtirilishi shartnomaviy munosabatlarning fuqarolik-huquqiy mohiyatini o'zgartirmasa-da, uni ifodalash va tasdiqlash mexanizmlarini tubdan yangilaydi: irodani mustahkamlash va uni tasdiqlash funksiyalari elektron hujjat va elektron imzo orqali amalga oshiriladi. Xorijiy tajriba tahlili quyidagi asosiy xulosalarga olib keladi.

Yevropa Ittifoqi modeli keng qamrovli huquqiy majburiyat mavjud tartib-taomillarni shunchaki raqamlashtirish bilan cheklansa, kutilgan barcha afzalliklarni bermasligini ko'rsatadi. Janubiy Koreyaning KONEPS tizimi avval elektron hujjat va imzoning yuridik kuchini tan olib, so'ngi ra yaxlit platforma qurish samarali ekanligini tasdiqlaydi. Qozog'iston tajribasi esa xaridlar jarayonini rejalashtirishdan to'lovigacha to'liq raqamlashtirishning ahamiyatini namoyon etadi.

Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda elektron shartnoma va elektron imzoning yozma shaklga tengligini Fuqarolik kodeksida aniq mustahkamlash, xaridlar jarayonini to'liq raqamlashtirish, sifat mezonlari reyestrini joriy etish, avtomatik komplayens mexanizmlarini qo'llash muvofiqdir. Ushbu xulosalar muvaffaqiyatli islohot faqat texnologik yechimga emas, balki izchil fuqarolik-huquqiy asosga tayanishi lozimligini tasdiqlaydi.

REFERENCES

- Abdusalilov, A. (2016). Pravovaya kharakteristika dogovorov, zaklyuchaemykh v Internetе [The legal characteristics of contracts concluded on the Internet]. *Journal of Russian Law*, (2). <https://justicemaker.ru/view-article.php?id=4&art=5346>
- Beloborodov, M. V., Yakovenko, D. A., & Nedelkina, Yu. E. (2021). Pravovaya priroda dogovora, zaklyuchennogo v forme elektronnoogo dokumenta [The legal nature of a contract concluded in the form of an electronic document]. *Law and Rights*, (7), 62–67. <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovaya-priroda-dogovora-zaklyuchennogo-v-forme-elektronnoogo-dokumenta>
- Davidson, A. (2009). *The law of electronic commerce*. Cambridge University Press. https://www.droitentreprise.com/wp-content/uploads/The_Law_of_Electronic_Commerce.pdf
- Deng, Y. (2025). Elektronnyy dogovor v grazhdanskom prave Uzbekistana i Kitaya: Yuridicheskaya sila i pravovye mekhanizmy upravleniya riskami [Electronic contract in the civil law of Uzbekistan and China: the legal force and legal mechanisms of risk management].

Legal force and legal risk management mechanisms]. *Society and Innovation*, 6(5), 69–77. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss5-pp69-77>

European Union. (2014). Directive 2014/24/EU of the European Parliament and of the Council of 26 February 2014 on public procurement and repealing Directive 2004/18/EC. *Official Journal of the European Union*, L 94, 65–242. <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2014/24/oj>

OECD. (2019). *Public procurement in Kazakhstan: Reforming for efficiency (OECD Public Governance Reviews)*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/c11183ae-en>

OECD. (2025). *Digital transformation of public procurement: Good practice report (OECD Public Governance Policy Papers No. 77)*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/79651651-en>

President of the Republic of Uzbekistan. (2025, December 26). *On further measures to ensure competition and transparency in the public procurement system (Decree No. DP-259)*. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-7952218>

Prizhennikova, A. N., & Kolyada, G. Y. (2020). Entrepreneurial activity in the conditions of the digital economy. *Education and Law*, (1), 244–253. <https://doi.org/10.24411/2076-1503-2020-00037>

Republic of Kazakhstan. (2024). *On Public Procurement (Law No. 106-VIII)*. Adilet.zan.kz. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z2400000106>

Republic of Uzbekistan. (1996). *Civil Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-111189>

Republic of Uzbekistan. (2021). *On Public Procurement (Law No. LRU-684)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-5382974>

Rustambekov, I. R. (2017). *Legal regulation issues of civil law relations on the Internet*. TSUL Publ.

Tayler, Y., & Langburd Wright, N. (2018, March 14). *The future of public procurement in the era of digitalization*. World bank blogs. <https://blogs.worldbank.org/en/governance/future-public-procurement-era-digitalization>

Usmonov, V. M. (2021). *Improving the legal framework for concluding and formalizing commercial contracts* [Doctoral dissertation]. National Guard Military-Technical Institute of the Republic of Uzbekistan.

Uzbek Republican Commodity Exchange. (2026, February 5). *UZEX activities: Results of 2025*. UzReport. <https://uzreport.news/exchange/2025-yil-yakunlariga-ko-ra-o-zbekiston-respublika-tovar-xom-ashyo-birjasida-tuzilgan-bitim>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 4-SON

VOLUME 6 / ISSUE 4 / 2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.4>.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence>